

MAXTUMQULI FIROG'IYI LIRIKASINING O'ZIGA XOS BO'LGAN JIHATLARI

Emadi Nesarahmad,

Termiz davlar universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti, O'zbek tili va adabiyot ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email: nesarahmademadi@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Nadim Muhammad Humayun,

Postdoctoral Researcher, Faculty of Uzbek Philology, Assoc. Prof. TerDU

Email: hn786786@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkman shoiri Maxtumquli Firog'iy lirikasining o'ziga xos bo'lgan jihatlari hamda uning vatnparvar ijodkor bo'lganligi shuningdek, Turkman shoir va olimlariga yo'llanma bo'lgan olimning ijodlarini katta qismini odob-axloq mavzusidagi didaktik sherlar tashkil etilishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: lirik, didaktik, ilhombaxsh, tasavvuf, odob-axloq, adabiyot.

Аннотация. В данной статье уникальные аспекты лирики туркменского поэта Махтумкули Фирогия и тот факт, что он был водолюбивым творцом, а также создание дидактических стихотворений на тему этики составляют важнейшую часть труда учёного являются справочником для туркменских поэтов и учёных.

Ключевые слова: лирический, дидактический, вдохновляющий, мистика, манера, литература.

Maxtumquli Firog'iyning she'rlari, asrlar o'tsada o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki Shoir she'rlarida elgari surilgan g'oyalarning barchasi Qo'roni karim va mu'tabar hadislar ta'limotiga asoslangan. Shu sababdan jahon ilmiyatiga xususan sharq mamlakatlari ta'lim-tarbiyasiga manfaatli bo'lib kelmoqda. Ijodkor yashagan zamon juda mashaqqatli va murakkab bir davr bo'lgan. Shu bois O'z davrning ma'naviy havosidan nafas olgan olim kuchli larzalarning, har xil qiyinchilik va hodisalarga duch kelib yashagan. Shu kabi og'ir davrni ichida bo'lgan orif o'z his-tuyg'ularidan kelib chiqqan holda yozgan she'rlari jarohatli yuraklarga malham, vujudlarga quvvat va harakat bag'ishlaydi. Shu o'rinda adib ilm olish uchun Buxoro, Xiva, Afg'oniston, Hindiston, yoki boshqa bir yurtlarda bo'lib, «hududma- hudud oralab» yursada, uning fikri xayoli, dardu tashvishi hamisha xalqi va uning kelajagi bilan band bo'lgan. U jamiyat, hayot, va odamlarning tushungan, odamgarchilikka erishgan dunyoviy va diniy tasavvufiy ilmlarni chuqur o'rganib, ma'naviy kamolotga erishgan komil shaxs bo'lgan. Jumladan, mutafakkir umum insoniyat baxtu-saodati uchun jon kuydirib yashagan payti o'sha

davrda dunyoning har tomoniga sochilgan, mustaqil davlati bo‘lmagan turkman xalqining hamjihat va milliy birlashishga chaqirgan.[1,B.33].

Mazkur shaxsning she‘riyati nafaqat turkman xalqiga, balki butun turkiy xalqlarning ham faxri-iftixoridir. Sababi, she‘riyatning benazir vakili bo‘lgan fozilning she‘rlari sheriyat va tasavvuf olimlari Ahmad Yassaviy, So‘fi Allohyor, Boborahim Mashrab, Muhammad Fuzuliy kabi shoirlar ijodiyoti qatorida sevib o‘qiladi. Shuningdek o‘z xalqi qiynalgan, ozor chekkan, g‘ussaga qolgan vaqtlarida allomaning dardlaridan forig‘ etadigan ma‘naviy bir hakim deb biladi. Bu fikrimizning isboti uchun quyidagi she‘rni ko‘rishimiz mumkin.

Gunohdan qo‘rqmagan yuzi qoradir,
Buning aniq kuni ro‘zi jazodir,
Bu dunyo mulkida sultondir, shohdir,
Qismatiga qoyil bo‘lsa odamzod.

Yuqoridagi she‘rda yaxshi-yomon shaxslar haqida aytayapti yomon odam bir kun jazosini topar va yaxshi kishi hamma uchun shoh kabi bo‘lar demoqchin.

Haqiqatdan ham yozuvchining nazmiy to‘plami qaynab chiqqan chashmaning suvi kabi musaffodir. Ular lola bog‘ini hidi kabi ko‘ngilni zavqlantirib odamning jushqinlikka keltiradi. Biz O‘zbek xalqi uchun Amir Alisher Navoiy qanchalik buyuk va shoir sifatida adabiyotimizning eng cho‘qqisiga yetkazgan kishi bo‘lsada, barcha turkiy xalqlarining qamrab olgan holda ayniqsa Turkman xalqiga tegishli bo‘lgan Maxtumquli Firog‘iy bu millatning tili va adabiyoti ilk namoyandasi bo‘lib xalqqa ilmiy ozuqa sifatida o‘zining barcha ijodlarini qoldirib, badiiy pand-nasihatli she‘rlar yozgan. Bunga dalil uchun quyidagi she‘rni ko‘rishimiz mumkin.

Doli ko‘nglum, bir nasihat deyayin,
Jon deymagil, bila jonon bo‘lormi?
Bir so‘zung o‘rnundo so‘yloy bilmayin,
Odam din bila inson bo‘lormi?

Bu yerda ko‘ngul orqali jamiyatda yashovchi xalqlarga aytayapdi kimki jon demasa birovning jonini ololmas ya‘niy, yaxshilik qilmagan yaxshilik ko‘rmaydi va odamzot o‘rtasida inson bo‘lmoq bir din bilan bo‘lmasligini aytadi.

Firog‘iy o‘z ijodlarida ko‘pincha odamzod bu dunyoda g‘aflatga qolmasligini o‘z taqvo va niyatini sof tutib, sarkashlik va zillat ichida o‘zining yuqotib qo‘ymagan holda dunyoning o‘tkinchligiga ishonib, yaratganning Mahshar maydoni adolatli bo‘lib o‘tishini bildirib, barchaning borar joyi aniq va kim qanday ish qilgan bo‘lsa javob berishi faktdir degan. Bu fikrni aniqligi uchun pastdagi she‘rni o‘qishimiz mumkin.[2,B.388].

Haryon ketsang borar yering gur bulor,
Xayr qozon yoton yering nur bulor.
Yaxshi bo‘lsang joying Jannat hur bulor,
Yomon bo‘lsang kuydirorlor nor bila.

Aytmoqchi bo‘lgani har kimki yaxshi ya’niy, dunyoda qo‘li xayrga ehsonga bo‘lgan bo‘lsa albatta, yotgan joyi nur ichida bo‘lib iymonli odam Jannat topar iymonsiz esa Jahannam topar demoqchin.[1,B.334].

Shu jumladan fikrimizning xulosa qilib aytadigan bo‘lsak mazkur olim umum bashariyat uchun kerakli bo‘lgan va insonlarning ikki dunyoda sarafroz komil shaxs bo‘lishiga o‘zining oltin va qimmatbaho ijodini qoldirib ketgan. U kishining asarlarida berilgan ma’lumotlar jamiyat ahliga muhim bardavonlik va yo‘llanma bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Murad Durdi Qozi. Maxtumquli Firogiyning komil devoni. – Mashhad: Gul nashr, 2006. 334.b.
2. T.s.s.r ulamolor akodimiyasining nashriyoti Maxtumquli soylonon sherlor-Ishqobot: 1960. 388.b.
3. Nadim, Muhammad Humayun. "Shimoliy afg‘oniston o‘zbeklari etnografik leksikasining tarixiy-etimologik xususiyatlari." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.2 (2021): 22-29.